



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIIY-INNOVATION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 4

2026

O‘QITUVCHINING REFLEKSIV KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHGA DOIR PEDAGOGIK YONDASHUVLAR

Magzumova Lola Turakulovna

Toshkent farmatsevtika instituti, Yoshlar bilan ishlash bo‘yicha dekan o‘rinbosari

Annotatsiya

Mazkur maqolada raqamli transformatsiya sharoitida o‘qituvchining reflektiv kompetensiyasini rivojlantirishga doir asosiy pedagogik yondashuvlar tahlil qilinadi. Kompetensiyaviy, faoliyatga asoslangan, reflektiv-amaliy, konstruktivistik hamda akmeologik yondashuvlarning mazmuni ochib berilib, ularning o‘zaro integratsiyasi o‘qituvchi kasbiy faoliyatining samaradorligini oshirishda muhim omil ekanligi asoslanadi. Tadqiqotda refleksiya pedagogik qarorlarni ongli ravishda qabul qilish, kasbiy tajribani tahlil qilish va uni takomillashtirish mexanizmi sifatida talqin etiladi. Shuningdek, J. Dyui va D. Shön konsepsiyalari asosida reflektiv kompetensiyaning zamonaviy ta‘lim muhitidagi metodologik ahamiyati yoritiladi.

Kalit so‘zlar: reflektiv kompetensiya, refleksiya, pedagogik yondashuvlar, kompetensiyaviy yondashuv, faoliyat yondashuvi, konstruktivizm, reflektiv-amaliy yondashuv, raqamli transformatsiya, o‘qituvchi faoliyati.

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К РАЗВИТИЮ РЕФЛЕКСИВНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ УЧИТЕЛЯ

Магзумова Лола Туракуловна

Ташкентский фармацевтический институт, заместитель декана по работе с молодежью

Аннотация

В статье анализируются педагогические подходы к развитию рефлексивной компетентности учителя в условиях цифровой трансформации. Раскрывается содержание компетентностного, деятельностного, рефлексивно-практического, конструктивистского и акмеологического подходов, а также обосновывается их интеграция как важный фактор повышения эффективности профессиональной деятельности педагога. Рефлексия рассматривается как механизм осознанного принятия педагогических решений, анализа и совершенствования профессионального опыта. Особое внимание уделено концепциям Дж. Дьюи и Д. Шёна как методологической основе формирования рефлексивной компетентности в современной образовательной среде.

Ключевые слова: рефлексивная компетентность, рефлексия, педагогические подходы, компетентностный подход, деятельностный подход, конструктивизм, рефлексивно-практический подход, цифровая трансформация, деятельность учителя.

PEDAGOGICAL APPROACHES TO DEVELOPING TEACHERS' REFLECTIVE COMPETENCE

Magzumova Lola Turakulovna

Tashkent Pharmaceutical Institute, Deputy Dean for Youth Affairs

Abstract

This article analyzes pedagogical approaches to developing teachers' reflective competence in the context of digital transformation. It examines the content of competency-based, activity-based, reflective-practical, constructivist, and acmeological approaches and substantiates their integration as a key factor in enhancing professional effectiveness. Reflection is interpreted as a mechanism for conscious decision-making, analysis, and improvement of professional practice. The study also highlights the methodological significance of J. Dewey's and D. Schön's

concepts in understanding reflective competence within modern educational environments.

Keywords: reflective competence, reflection, pedagogical approaches, competency-based approach, activity approach, constructivism, reflective practice, digital transformation, teacher activity.

Raqamli transformatsiya sharoitida o'qituvchining reflektiv kompetensiyasini rivojlantirish masalasi zamonaviy pedagogika va psixologiyada kompetensiyaviy yondashuv, faoliyat yondashuvi, reflektiv-amaliy yondashuv, konstruktivistik yondashuv hamda akmeologik va uzluksiz kasbiy rivojlanish konsepsiyalari kesishgan nuqtada izohlanadi. Mazkur yondashuvlarning har biri reflektiv kompetensiyaning muayyan jihatini yoritadi, biroq ularning integratsiyasi o'qituvchi kasbiy faoliyatining murakkab va ko'p qatlamli tabiatini to'liqroq tushuntirish imkonini beradi. Ayniqsa, raqamli ta'lim muhitining tezkor o'zgaruvchanligi, pedagogik jarayonning ochiqligi va axborot oqimining intensivligi o'qituvchidan nafaqat yuqori darajadagi texnologik savodxonlikni, balki o'z faoliyatini ongli ravishda boshqarish qobiliyatini ham talab etadi.

Kompetensiyaviy yondashuv doirasida reflektiv kompetensiya o'qituvchining umumkasbiy kompetensiyalari tizimining ajralmas tarkibiy qismi sifatida qaraladi. Bu yondashuvga ko'ra, refleksiya — bu shaxsning o'z faoliyatini baholash, xatolarini aniqlash va ularni tuzatish strategiyasini ishlab chiqish qobiliyatidir. Raqamli transformatsiya sharoitida mazkur kompetensiya pedagogik faoliyat samaradorligini ta'minlovchi muhim mezonlardan biriga aylanadi, chunki o'qituvchi doimiy ravishda o'z metodlarini, ta'lim vositalarini va o'quvchilar bilan muloqot shakllarini qayta ko'rib chiqishga majbur bo'ladi.

Faoliyat yondashuvi refleksiyaning subyektning o'z faoliyatini anglash va boshqarish jarayoni sifatida talqin etadi. O'qituvchi pedagogik faoliyatni amalga oshirar ekan, u maqsad qo'yadi, vositalarni tanlaydi, natijalarni tahlil qiladi va keyingi harakat strategiyasini belgilaydi. Raqamli muhitda bu jarayon yanada murakkablashadi, chunki har bir pedagogik qaror ko'p sonli omillar — o'quvchilarning individual xususiyatlari, raqamli platformalar imkoniyatlari, baholash mezonlari va ijtimoiy kontekst bilan bog'liq bo'ladi. Shu bois reflektiv kompetensiya faoliyatni boshqarishning ichki regulatori sifatida namoyon bo'ladi.

Reflektiv-amaliy yondashuv esa refleksiyaning kasbiy tajribani tahlil qilish va qayta qurish mexanizmi sifatida ko'radi. Bu yondashuvga ko'ra, o'qituvchi har bir pedagogik vaziyatni o'rganish va undan xulosa chiqarish orqali o'z professional mahoratini oshiradi. Raqamli transformatsiya sharoitida bu jarayon raqamli monitoring, analitik ma'lumotlar va interaktiv platformalar orqali yanada chuqurlashadi. Masalan, o'qituvchi o'quvchilarning raqamli natijalarini tahlil qilib, dars metodikasini moslashtirishi mumkin. Bu esa refleksiyaning operatsion darajada namoyon bo'lishidir.

Konstruktivistik yondashuv refleksiyaning bilimni faol ravishda qurish jarayoni bilan bog'laydi. O'qituvchi o'z pedagogik tajribasini doimiy ravishda qayta talqin qiladi va yangi bilimlarni mavjud tajriba bilan integratsiya qiladi. Raqamli ta'lim muhiti konstruktivistik paradigmaga keng imkoniyatlar yaratadi, chunki interaktiv vositalar va hamkorlik platformalari o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida bilimni birgalikda yaratish jarayonini kuchaytiradi. Bu jarayonda reflektiv kompetensiya bilimlarni tanqidiy tahlil qilish va moslashtirish vositasi sifatida xizmat qiladi.

Akmeologik va uzluksiz kasbiy rivojlanish konsepsiyasi esa reflektiv kompetensiyani o'qituvchining professional yetuklik darajasini belgilovchi omil sifatida ko'rsatadi. Bu yondashuvga ko'ra, pedagog o'zining kasbiy rivojlanish yo'lini ongli ravishda rejalashtiradi, maqsad qo'yadi va o'z faoliyatini doimiy takomillashtirishga intiladi. Raqamli transformatsiya sharoitida uzluksiz o'rganish va o'zini rivojlantirish zarurati yanada kuchayadi. Shu sababli reflektiv kompetensiya o'qituvchining kasbiy barqarorligini ta'minlovchi muhim shartga aylanadi.

Mazkur yondashuvlarning umumiy g'oyasi shundan iboratki, refleksiya o'qituvchining kasbiy faoliyatini ongli boshqarish, pedagogik qarorlarni asoslash, natijalarni tahlil qilish va tajribani qayta loyihalashga xizmat qiluvchi ichki mexanizm sifatida namoyon bo'ladi. Refleksiv kompetensiya esa ushbu jarayonlarni barqaror, tizimli va maqsadli amalga oshirishga imkon beruvchi integrativ kasbiy sifatdir. U nafaqat individual-psixologik xususiyat, balki ijtimoiy-pedagogik kontekstda shakllanuvchi va rivojlanadigan kompleks hodisa sifatida qaraladi.

Shunday qilib, raqamli transformatsiya sharoitida refleksiv kompetensiyani rivojlantirish o'qituvchining kasbiy samaradorligini oshirish, innovatsion pedagogik faoliyatni qo'llab-quvvatlash hamda ta'lim sifatini ta'minlashning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Bu esa mazkur muammoni nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham dolzarb ilmiy tadqiqot obyekti sifatida ko'rib chiqishni taqozo etadi.

Refleksiya fenomeni pedagogik fikr tarixida, avvalo, J. Dyuning "reflektiv tafakkur" konsepsiyasi bilan ilmiy asoslangan [1]. Dyui reflektiv tafakkurni shaxsning ma'lum bir bilim, tasavvur yoki e'tiqodning asoslarini tanqidiy tekshirishi hamda uning ehtimoliy oqibatlarini ongli ravishda tahlil qilishi bilan bog'liq "faol, izchil va ehtiyotkor mulohaza yuritish jarayoni" sifatida ta'riflaydi. Uning qarashlariga ko'ra, reflektiv tafakkur shunchaki fikrlash emas, balki muammoli vaziyatdan kelib chiqib savol qo'yish, dalillarni izlash, alternativ yechimlarni ko'rib chiqish va amaliy sinov orqali asoslangan xulosaga kelish jarayonidir.


Mazkur yondashuv ta'lim jarayonida refleksiyaning metodologik tamoyil sifatida talqin etadi. Ya'ni o'qituvchi o'z faoliyatini avtomatik tarzda emas, balki har bir pedagogik vaziyatni anglab, sabab-oqibat bog'liqligini tahlil qilib, ongli ravishda qaror qabul qilish asosida tashkil etishi lozim. Shu ma'noda, refleksiv kompetensiyani rivojlantirishga doir pedagogik yondashuvlar o'qituvchini "tayyor algoritmi ijrochisi" sifatida emas, balki vaziyatni tanqidiy tahlil qiluvchi, o'z faoliyatini baholay oladigan va pedagogik yechimlarni ilmiy asosda ishlab chiqadigan professional subyekt sifatida ko'radi.

Bunday talqin, ayniqsa, raqamli transformatsiya sharoitida alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki zamonaviy ta'lim muhiti standart va qat'iy ssenariylar bilan cheklanmaydi; u o'qituvchidan o'zgaruvchan vaziyatlarga moslashish, yangi pedagogik texnologiyalarni sinovdan o'tkazish hamda natijalarni tahlil qilib, keyingi faoliyat strategiyasini qayta belgilashni talab etadi. Dyui tomonidan asoslangan reflektiv tafakkur konsepsiyasi aynan shu jarayonning nazariy poydevorini tashkil etadi hamda o'qituvchining refleksiv kompetensiyasini shakllantirish uchun muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

XX asr oxirida refleksiya kasbiy rivojlanishning amaliy mexanizmi sifatida D. Shön tomonidan chuqur nazariy asoslandi. U refleksiyaning murakkab va noaniq kasbiy vaziyatlarda mutaxassisning samarali faoliyat yuritishini ta'minlovchi ichki intellektual mexanizm sifatida talqin etdi. Shönning konsepsiyasida refleksiya professional faoliyatning ajralmas tarkibiy qismi bo'lib, u mutaxassisning o'z harakatlarini ongli ravishda tahlil qilishi, ularni vaziyatga mos ravishda qayta ko'rib chiqishi va zarur hollarda darhol moslashtirishi bilan bog'liq jarayon sifatida izohlanadi [2].

U refleksiyaning "refleksiya-amalda" (reflection-in-action) va "refleksiya-amaldan so'ng" (reflection-on-action) shakllarida talqin qilib, kasbiy faoliyat jarayonida yuzaga keladigan noaniqlik va murakkablikni boshqarishning muhim vositasi sifatida izohladi (1-rasmga qarang).

Mazkur yondashuv refleksiyaning faqat faoliyatdan keyingi nazariy mulohaza emas, balki bevosita amaliy jarayonning o'zida yuz beradigan dinamik tafakkur shakli sifatida talqin etishi bilan ahamiyatlidir. Shönning nazariy qarashlari refleksiyaning kasbiy o'sishning ichki mexanizmi sifatida tushuntirib, pedagogning tajribasini ongli ravishda qayta qurish va takomillashtirish imkonini beruvchi muhim metodologik asosni yaratdi. Ayniqsa, tez o'zgaruvchan ijtimoiy va texnologik sharoitlarda mazkur konsepsiya kasbiy moslashuvchanlik va innovatsion faoliyatning nazariy tayanchiga aylandi.



1-rasm. D. Shönning refleksiya borasidagi konsepsiyasi

Shönning “Reflektiv amaliyotchi” konsepsiyasiga ko‘ra, mutaxassis, jumladan, o‘qituvchi oldindan belgilangan qat’iy algoritmlar asosida emas, balki vaziyatni bevosita jarayon davomida tahlil qilish orqali harakat qiladi. “Refleksiya-amalda” jarayonida pedagog dars o‘tish vaqtidayoq yuzaga kelgan muammoli vaziyatni anglaydi, o‘z qarorlarini qayta ko‘rib chiqadi va darhol moslashtiradi. “Refleksiya-amaldan so‘ng” esa faoliyat yakunlangach amalga oshiriladi: o‘qituvchi o‘z tajribasini tahlil qiladi, natijalarni baholaydi va kelgusidagi faoliyat strategiyasini aniqlaydi.

Mazkur yondashuv refleksiyani passiv kuzatuv emas, balki faol, dinamik va vaziyatga moslashuvchan kasbiy tafakkur jarayoni sifatida talqin etadi. Ayniqsa, raqamli ta‘lim muhitida bu g‘oya alohida dolzarblik kasb etadi. Chunki zamonaviy o‘qituvchi interaktiv platformalar, raqamli monitoring tizimlari va o‘quvchilarning individual ta‘lim trayektoriyalari bilan ishlash jarayonida tezkor qaror qabul qilishga majbur bo‘ladi. Monitoring natijalari, test tahlillari yoki o‘quvchilarning onlayn faolligi asosida dars dizaynini qayta sozlash aynan “refleksiya-amalda” mexanizmi orqali amalga oshiriladi.

Shu bois Shön konsepsiyasi o‘qituvchining refleksiv kompetensiyasini raqamli transformatsiya sharoitida nazariy jihatdan asoslashda muhim metodologik tayanch vazifasini bajaradi. U pedagogni o‘z faoliyatini doimiy ravishda tahlil qiluvchi, vaziyatga moslashuvchi va kasbiy qarorlarni ongli ravishda qabul qiluvchi professional subyekt sifatida talqin etishga imkon beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Dewey J. How We Think: A Restatement of the Relation of Reflective Thinking to the Educative Process. — Boston: D.C. Heath and Company, 1933. — 301 p.
2. Schön D. A. The Reflective Practitioner: How Professionals Think in Action. — New York: Basic Books, 1984. — P. 49–90.
3. Сухобская Г. С., Горбунова Л. Л. Рефлексия в профессиональной деятельности педагога. — М.: Институт психологии РАН, 2001. — 198 с.
4. Zeichner K. M., Liston D. P. Reflective Teaching: An Introduction. — New York: Routledge, 2013.